

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Rus tili va adabiyoti kafedrası yig'ilishi dan ko'chirma
BAYONNOMA dan ko'chirma
№ 2 -son

27.09.2025 yil DTPI Rus tili kafedrası
Yig'ilish raisi: J.G.Choriyev – rus tili va adabiyoti kafedrası mudiri
Kotib: S.X.Xusanova

Qatnashdilar: Filologiya fakulteti dekani –M.N. kafedrası mudiri kafedra
professor-o'qituvchilari.
Jami: 21 kishi

KUN TARTIBI:

Rus tili va adabiyoti o'qituvchisi Choriyeva Sharofat Turayevna tomonidan
“Bog'lovchisiz murakkab gaplar intonatsiya va punktuatsiyasi” mavzusida o'tkazilgan
ma'ruza darsi tahlili.

ESHITILDI:

Kafedra mudiri J.G.Choriyev so'zga chiqib, bugungi yig'ilishda
Sh.T.Choriyevaning “Bog'lovchisiz murakkab gaplar intonatsiya va punktuatsiyasi”
mavzusida o'tkazilgan ochiq ma'ruza darsi muhokama qilinishini ta'kidladi.

SO'ZGA CHIQDILAR:

O'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari N.Q.Shaymardanova: ma'ruza darsi
puxta tayyorlanganini, intonatsion va punktuatsion jihatlar amaliy misollar orqali
yoritilganini qayd etdi. Talabalar mavzuga faol jalb qilingan, mustaqil tahlil qilish va
xulosa chiqarishga yo'naltirilgan.

Rus tili va adabiyoti o'qituvchisi F.R.Ismatullayeva darsda multimedia vositalari
samarali qo'llangani, misollar orqali bessoyuzli murakkab gaplarda intonatsiyaning
o'rni va tinish belgilarining qo'llanilishidagi qonuniyatlar aniq ko'rsatib berilganini
ta'kidladi.

O'qituvchi R.H.Aminova dars davomida talabalarda tanqidiy fikrlash va ijodiy
yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgani, turli metodlardan
foydalangan holda nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'langanini aytib o'tdi.

Yig'ilish yakunida J.G.Choriyev barcha fikrlarni umumlashtirib, o'qituvchi
tomonidan olib borilgan ma'ruza darsi kafedra tomonidan ijobiy baholanishi
lozimligini qayd etdi.

QAROR QILINDI:

Bildirilgan barcha fikr va mulohazalarni inobatga olish;

“Bog'lovchisiz murakkab gaplar intonatsiya va punktuatsiyasi” mavzusidagi
ma'ruza darsi oliy ta'lim talablariga mos va samarali tashkil etilganini qayd etish;

O'qituvchining ochiq ma'ruza darsini ijobiy baholash.

Ovoz berildi: «ha» – bir ovozdan.

Yig'ilish raisi:

Kafedra kotibi:

J.G.Choriyev

S.X.Xusanova



